XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-oktabr VI-70-116-8-116-K/24 Sariosiyo tumani

Sariosiyo tumani, Sharg‘un shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabrda kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabrda kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 8-avgustdagi Sariosiyo tumani hokimiga yuborilgan 01-117-sonli xati orqali ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Sariosiyo tumani, Sharg‘un shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 8-avgustdagi 02-01/142-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Sariosiyo tumani, Sharg‘un shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Sariosiyo tumani Sharg‘un shahar bilan chegaradosh bo‘lgan Sariosiyo tumani o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Sharg‘un shahar ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi bo‘lgan foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘iga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi



DONAYEV
ABDUQODIR
HAYDAROVICH

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2024-yil 26-oktabrdagi
VI-70-116-8-116-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi Sharg‘un shahri chegara
TAVSIFI

Sharg‘un shahri va Sariosiyo tumanlari chegaralari kesishgan joydagi dala tuproq yo‘lining sharq tomonida joylashgan nuqtani boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari* 38° 28' 2,590*″, sharqiy uzunlik koordinatalari* 67° 58' 29, 360*″).*

A dan A gacha Sariosiyo tumani yerlari bilan 1–1-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1–nuqtadan chegara chizig‘i yaxshilangan dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 96 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38°27'59,826*″, sharqiy uzunlik* 67°58' 27,585*″).*

2–nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 497 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 55,081*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 44,806*″).*

3–nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 482 metr masofani o‘tib, ariq bilan tutashgan joydagi 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 40,889*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 43,460*″).*

4–nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 428 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 41,215*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 26,246*″).*

5–nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bo‘ylab umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 390 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 40,315*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 10,909*″).*

6–nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1299 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 4,425*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 30,281*″).*

7–nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 105 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 2,753*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 27,631*″).*

8–nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 551 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38°27'19,04*″, sharqiy uzunlik* 67°58' 19,77*″).*

9–nuqtadan chegara chizig‘i avval qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 41 metr masofani o‘tib, keyin tomorqa devori bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 45 metr, so‘ng

gʻarbiy yoʻnalishda 141 metr masofani oʻtib, tomorqa devori burilishidagi 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 17,457*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 12,414*″).*

10–nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab janubiy yoʻnalishda 123 metr masofani oʻtib, yoʻlining shimol tomonida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38°27'13,456*″, sharqiy uzunlik* 67°58' 12,509*″).*

11–nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 172 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 202 metr masofani oʻtib, soʻng Shargʻun-Sarosiyo avtomobil yoʻlini 22 metr masofada kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 13,352*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 57,534*″).*

12–nuqtadan chegara chizigʻi Shargʻun-Sarosiyo avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 192 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 19,529*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 56,788*″).*

13–nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 431 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 11,869*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 42,363*″).*

14–nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomonidan 447 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy-kenglik* 38°27'26,162*″, sharqiy-uzunlik* 67°57' 40,789*″).*

15–nuqtadan chegara chizigʻi avval gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomonidan 195 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 22 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 27,290*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 32,835*″).*

16–nuqtadan chegara chizigʻi gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomonidan 389 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 34,050*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 20,225*″).*

17–nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni boʻylab umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 195 metr masofani oʻtib, yoʻlni boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 36,414*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 12,996*″).*

18–nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomonidan 83 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 39 metr masofani oʻtib, soʻng qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 181 metr masofani oʻtib, Dam arigʻining oʻng tomonida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 44,914*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 10,408*″).*

19–nuqtadan chegara chizigʻi Dam arigʻining suv oqimi boʻylab oʻng tomonidan sharqiy yoʻnalishda 301 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy-kenglik* 38°27'43,606*″, sharqiy-uzunlik* 67°57' 22,554*″).*

20–nuqtadan chegara chizigʻi avval toʻgʻri chiziqli chegara chizigʻi bilan shimoliy yoʻalishda 17 metr, keyin tomorqa devori bilan shimoliy yoʻnalishda 364 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 40 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 27' 55,999*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 23,516*″).*

21–nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan 383 metr masofani oʻtib,ariq boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 7,896*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 23,094*″).*

22–nuqtadan chegara chizigʻi umumiy gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan 459 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 8,348*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 4,610*″).*

23–nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan 347 metr masofani oʻtib,qishloq ichki yoʻlining shimol tomonida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38°28'19,596*″,sharqiy uzunlik* 67°57' 4,365*″).*

24–nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 484 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 19,389*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 24,007*″).*

25–nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 136 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28'23,258*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 26,669*″).*

26–nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 183 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 28,177*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 22,519*″).*

27–nuqtadan chegara chizigʻi avval toʻgʻri chegara chizigʻi bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 25 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, keyin ariqning suv oqimiga qarshi umumiy sharqiy yoʻnalishda 209 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 29,134*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 31,911*″).*

28–nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan 200 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 35,611*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 32,244*″).*

29–nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi 148 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻlining shimol tomonida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy-kenglik* 38°28' 34,08*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 37,768*″).*

30–nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 101 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 35,591*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 41,408*″).*

31–nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 539 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 52,983*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 42,024*″).*

32–nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 212 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 55,006*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 33,689*″).*

33–nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi 574 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 29' 12,685*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 38,897*″).*

34–nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomonidan 133 metr masofani oʻtib, yoʻl boyida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38°29'16,656*″, sharqiy uzunlik* 67°57' 36,893*″).*

35–nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq tuproq yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 247 metr masofada Shargʻun soyni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻl

bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik* 38° 29' 18,765*″, sharqiy uzunlik* 67° 57' 46,637*″).*

36–nuqtadan chegara chizig‘i avval dala tuproq tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 488 metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 24 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 29' 21,917*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 6,579*″).*

37–nuqtadan chegara chizig‘i avval to‘g‘ri chiziqli chegara chizig‘i bilan sharqiy yo‘nalishda 19 metr masofada avtomobil yo‘li kesib o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 648 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 29' 24,006*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 33,714*″).*

38–nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 287 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 29' 15,437*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 30,674*″).*

39–nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 195 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziqli chegara chizig‘i bilan 8 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 50 metr masofani o‘tib, 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 29' 9,095*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 34,934*″).*

40–nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda 733 metr keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 114 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 45,011*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 36,932*″).*

41–nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 189 metr masofani o‘tib, xo‘jaliklararo ichki yo‘lining g‘arb tomonida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 38° 28' 39,100*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 35,079*″).*

42–nuqtadan chegara chizig‘i xo‘jaliklararo ichki yo‘lining g‘arb tomonida bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 35 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 72 metr masofani o‘tib, xo‘jaliklararo ichki yo‘lining shimol tomonida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 36,013*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 35,669*″).*

43–nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 237 metr masofani o‘tib, yo‘lining burilish qismida joylashgan 44-tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 36,999*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 25,975*″).*

44–nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 53 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘lining shimol tomonida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 38,704*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 26,216*″).*

45–nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 151 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 38,401*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 19,997*″).*

46–nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 354 metr masofani o‘tib, xo‘jaliklararo ichki yo‘lining janub tomonida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 48,770*″, sharqiy uzunlik* 67° 58' 22,083*″).*

47–nuqtadan chegara chizigʻi xoʻjaliklararo ichki yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 155 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 46,841″*, sharqiy uzunlik* 67° 58' 16,218″*).*

48–nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 171 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 42,849″*, sharqiy uzunlik* 67° 58' 11,832″*).*

49–nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1172 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻlining janub tomoniga joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 5,121″*, sharqiy uzunlik* 67° 58' 7,648″*).*


50–nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni boʻylab sharqiy yoʻnalishda 305 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik* 38° 28' 3,566″*, sharqiy uzunlik* 67° 58' 20,065″*).*

51–nuqtadan chegara chizigʻi avval toʻgʻri chiziqli chegara chizigʻi bilan sharqiy yoʻnalishda 9 metr, masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, keyin tomorqa devori bilan sharqiy yoʻnalishda 54 metr, soʻng janubiy yoʻnalishda 29 metr, soʻngra ariq boʻylab umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 147 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziqli chegara chizigʻi bilan 34 masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomonida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari* 38° 28' 2,590″*, sharqiy uzunlik koordinatalari* 67° 58' 29,360″*).*

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2024-yil 26-oktabrdagi
VI-70-116-8-116-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani Sharg'un shahrining
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan A gacha Sariosiyo tumani yerlari

Shartli belgilar

1 **Chegaraning burilish nuqtalari**

Shaharlar chegarasi